


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI KADASTR AGENTLIGI		
Kirish №	52-01	
"26"	04	2023y.

**“TASDIQLAYMAN”**  
Iqtisodiyot va moliya vazirligi  
huzuridagi Kadastr agentligi  
direktori – Hay’at raisi

  
F.J.Pulatov  
2023-yil “\_\_” -iyul

**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi  
Kadastr agentligi Hay’ati yig‘ilishining  
BAYONI**

2023-yil “\_\_”-iyul

Toshkent sh.

**Raislik qiluvchi:** F.J.Pulatov – Kadastr agentligi direktori

**Qatnashdilar:** Hay’at a’zolari, markaziy apparat boshqarma  
va mustaqil bo‘linmalari boshliqlari

**KUN TARTIBI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil I yarim yilligi davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.

2. Kadastr agentligiga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlari ijro holati haqida.

3. Kadastr agentligi markaziy apparatida 2023-yil I yarim yilligi davomida murojaatlar bilan ishlash holati haqida.

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida.

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil I yarim yilligi davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.

(Pulatov, Allaberganov, Abdullayev, Mirmaksudov, Abdullayev, Valiyev, Sultanov, Shoniyazov, Pulatov)

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tashkil etilgan paytdan boshlab yer, kadastr va geodeziya sohasida yangicha formatda va samarali ish olib borilmoqda.

### **Yer va ko'chmas mulklarni hisobga olish yo'nalishida:**

Respublikaning jami **44,9 mln gektar** yer maydonidan **43 mln gektari** yoki **96 foizi** "Kadastr va ro'yxatdan o'tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi"da **elektron xaritasi yaratilib**, kadastr axborot tizimiga kiritildi, Shundan:

– **39,4 mln gektar 3 790,1 mingta** yerdan foydalanuvchilar kesimida kadastr yig'ma jildlari shakllantirilgan holda **davlat ro'yxatidan o'tkazildi**.

– **2,3 mln gektar** yer uchastkalaridan haqiqatda foydalanib turgan subyekt "**foydalanuvchi**" sifatida **hisobga olindi (3 725,3 mingta)**.

Avval hisobga olinmagan **85,2 mingta** qo'shimcha obyekt, **14,7 mingta** obyektga qo'shimcha qurilmalar aniqlanib, budjetga **156,0 mlrd so'm qo'shimcha soliq** hisoblandi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari asosida **392 867 ta** shundan, **41 381 ta** yangi ko'chmas mulklar va **351 486 ta** mavjud obyektlar qayta ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

### **Yer, kadastr va geodeziya nazorati yo'nalishida:**

Amalga oshirilgan yer va kadastr nazorati tadbirlari natijasida **6 213 ta** holatda **2 391 gektar** yerlarni **o'zboshimchalik bilan egallab olish** bo'yicha huquqbuzarliklar aniqlanib, berilgan yozma ko'rsatmalar asosida **2 546 ta** holatda **671 gektar** yoki **41 foiz** yer qonunbuzilish holatlari ixtiyoriy ravishda bartaraf etildi.

Yer uchastkalarini qaytarish va ularda qurilgan imoratlarni buzdirish bo'yicha sudlarga **1 810 ta** holatda **922,3 gektar** da'vo arizalar kiritildi.

Shundan, **374 ta (37,5 gektar)** da'vo arizalar sudlar tomonidan qanoatlantirilib, majburiy ijroga qaratildi.

Huquqbuzarlik holatida **jinoyat alomatlari mavjud** bo'lgan **334 ta** materiallar o'rnatilgan tartibga muvofiq prokuratura organlariga kiritildi.

Yerga oid huquqbuzarlik sodir etgan **13 588 ta** shaxslarga **ma'muriy jazo** choralari qo'llanildi.

Yer va kadastr nazoratini avtomatlashtirish maqsadida "**E-yer nazorat**" AAT amaliyotga joriy etilib, **17 500 ta** aniqlangan huquqbuzarliklar axborot tizimiga kiritildi.

Geodeziya va kartografiya faoliyatiga oid **84,8 mlrd so'mlik** ishlar ekspertizadan o'tkazildi.

Geodeziya va kartografiya faoliyatiga oid **115 ta** texnik loyiha (ishlar dasturlari), **49 ta** geodeziya va kartografiya ishlarining yakuniy texnik hisobotlari hamda **113 ta** kartografiya mahsulotlari ekspertizadan o'tkazildi.

Maxfiy kartografiya va geodeziya materiallariga **35 ta** ruxsatnomalar rasmiylashtirilib, **17 281 ta** materiallar foydalanuvchilarga taqdim etildi.

Geodeziya va kartografiya faoliyati bilan shug'ullanish uchun "Litsenziya" AT orqali yuborilgan **90 ta** xabarnomalar tahlil qilingan holda reyestrda hisobga olindi.

**Bo'sh yerlarni auksionga chiqarilishi yo'nalishida:**

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qaroriga asosan tadbirkorlik faoliyati uchun kadastr idoralari tomonidan **108 254 ta 7 416 gektar** yer uchastkalari "Yerelektron" tizimiga kiritildi.

Shundan vakolatli idoralar tomonidan:

**15 149 ta 913,5 gektar** yer uchastkalari rad etildi;

**60 197 ta 3 758,4 gektar** (*mulk huquqi asosida 19 359 ta, ijara huquqi asosida 40 838 ta*) yer uchastkasi auksionga chiqarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentabrdagi PQ-373-son qaroriga asosan dehqon xo'jaligi uchun **193 155 gektar** past hosilli paxta-g'alladan bo'shagan yerlarni 2022-2023-yillar davomida tuman hokimligi zaxirasiga qaytarish belgilangan.

2023-yilning 1-iyul holatiga hokimliklar qaroriga asosan **198 500 gektar** (103 %) yerlari zaxiraga qaytarilgan.

Kadastr idoralari tomonidan "UzKad" tizimi orqali tuman hokimliklari nomiga jami **74 997 ta 1 417 917 gektar** zaxira yerlari, shu jumladan, **50 763 tasi** yoki **355 671 gektari** suvli yerlar davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

"O'zdavyerloyiha" tomonidan **693 557 ta 496 144 gektar** (*dehqon xo'jaligi uchun 687 787 ta 194 879 gektar*) yer uchastkalari tanlovga chiqarilgan.

Tanlovda **659 893 ta 388 503 gektar** (*dehqon xo'jaligi uchun 655 503 ta 176 988 gektar*) tanlov g'olibi aniqlangan va "O'zdavyerloyiha" tomonidan **658 662 ta** (*386 162 gektar*) ijara shartnomalari rasmiylashtirilib, Davlat kadastrlari palatasiga **657 721 tasi** yuborilgan.

Davlat kadastrlari palatasi tomonidan yer uchastkasiga bo'lgan **652 672 ta 385 104 gektar** (*dehqon xo'jaligi uchun 648 380 ta 174 976 gektar*) ijara huquqlari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

**Geodeziya va kartografiya faoliyati yo'nalishida:**

O'tgan davr mobaynida **15 ta** geodeziya punktlarini tekshirish ishlari amalga oshirildi, **74 ta** geodeziya o'lchovlari bajarildi, **55 km** nivelirlash ishlari bajarildi.

**42 937 kv.km.** maydonda aerosuratga olish ishlari, **29 000 kv.km** maydonda deshifrovka ishlari bajarildi, **46 900 kv.km.** maydonda ortofotoplanlar yaratildi, **27 700 kv.km.** maydonda topografik xaritalar yangilandi va **36 800 kv.km.** ochiq turdagi xaritalar yaratildi.

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha qilingan muhokamadan kelib chiqib Hay'at yig'ilishi **qaror qiladi:**

**1.** Kadastr agentligining 2023-yil I yarim yili davomida amalga oshirilgan ishlari to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**2. Direktor o‘rinbosarlari (A.Allaberganov, T.Abdullayev, A.Abdullayev, M.Mirmaksudov), markaziy apparat tarkibiy tuzilma rahbarlari** Agentlikning 2023-yil II yarim yillik uchun belgilangan ko‘rsatkichlar so‘zsiz bajarilishini ta‘minlasin.

**2. Agentlikda 2023-yil yanvar-iyun oylari davomida “Ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari ijro holati haqida.**

---

*(Pulatov, Allaberganov, Mirmaksudov, Sultanov, Latipov, Babadjanov, Ergeshov, Abdullayev, Shoniyazov, Pulatov)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-son qarori talablaridan kelib chiqib, Kadastr agentligi “Ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan quyidagilar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi organlarining vazifalarini amalga oshirish, mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ta‘minlash maqsadida Kadastr agentligiga 2023-yilning yanvar-iyun oylarida “**ijro.gov.uz**” tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **jami 793 ta** topshiriqlari, shundan Kadastr agentligi asosiy ijro bo‘lgan **23 ta** topshiriqlar kelib tushgan. Mazkur **791 ta** topshiriqlar belgilangan muddatlarda ijrosi to‘liq ta‘minlangan bo‘lsa, **2 ta** topshiriq ijro muddati uzaytirildi.

Ushbu **793 ta** topshiriqlarning **740 tasi 28 ta** qarorga, **13 tasi 10 ta** farmonga, **2 tasi 2 ta** farmoyishga va **38 ta** topshiriqlar Davlat rahbari huzurida o‘tkazilgan hamda hududlarga tashriflari davomida tuzilgan **22 ta** bayonlarga to‘g‘ri keladi.

Kadastr agentligi asosiy ijrochi bo‘lgan **2 ta** topshiriq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-avgustdagi PQ-357-son qarorining 2-ilovasi 16,3-bandi (*muddati 30.04.2023-yil*) va 16,4-bandi (*muddati 25.06.2023-yil*) bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 19-maydagi 46/104-sonli va 2023-yil 24-iyundagi 50/11-son Rayosat majlisi bayonlari 6-ilovasi 20-bandiga asosan 16,3-bandi muddati **joriy yil 1-dekabrga qadar**, 16,4-bandi muddati **2024 yil 1-iyunga qadar uzaytirilishga ruxsat berilgan.**

Agentlikka kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining barcha hujjatlari ijrosini ta‘minlash yuzasidan ijrochilarga tezkor yetkazilishi, nazorat bandlari va topshiriqlarda aniq mexanizmlar, muddatlar va mas‘ullar belgilanishi bo‘yicha Agentlik direktorining buyrug‘i va nazorat-rejalari tasdiqlanib, doimiy nazoratga olinishi ta‘minlandi.

Shu bilan birga, ushbu topshiriqlarning mohiyati va ahamiyatini hamda ularni amalga oshirish yuzasidan qabul qilinayotgan chora-tadbirlarni tushuntirish

maqsadida Kadastr agentligining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali tushuntirish ishlari olib borildi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha qilingan muhokamadan kelib chiqib, Hay'at yig'ilishi **qaror qiladi:**

1. Kadastr agentligi direktorining birinchi o'rinbosari A.Allaberganovning Agentlikning 2023-yil I yarim yilligi davomida "Ijro.gov.uz" tizimi orqali kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari ijro holati haqida bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. **Direktor o'rinbosarlari (A.Allaberganov, T.Abdullayev, A.Abdullayev, M.Mirmaksudov), markaziy apparat tarkibiy tuzilma rahbarlari** "Ijro.gov.uz" tizimida ijro muddati 2023-yil III va IV choraklariga belgilangan topshiriqlar bajarilishini kamida besh kun oldin bajarish choralari ko'rsin.

Bunda, ijroga mas'ul xodimlar tomonidan ijro muddati buzilgan taqdirda qonun hujjatlariga muvofiq qat'iy intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi haqida ogohlantirilsin.

**3. Kadastr agentligi markaziy apparatida 2023-yil I yarim yilligi davomida murojaatlar bilan ishlash holati haqida.**

---

*(Pulatov, Shoniyazov, Allaberganov, Abdullayev, Mirmaksudov, Valiyev, Pulatov)*

Kadastr agentligiga O'zbekiston Respublikasi **Prezidentining virtual qabulxonasi, Tadbirkorlar virtual ofisi, Bosh prokuratura va Xotin-qizlar** ishonch telefonlari, **to'g'ridan-to'g'ri** yoki **boshqa tashkilotlar** orqali keluvchi, shuningdek, **Agentlikning "Ishonch telefoni"** orqali 2023-yilning 1-iyul holatiga kelib tushgan **murojaatlar** tahlil qilindi.

Agentlik tizimiga kelib tushgan jami **6 748 ta** murojaatlarning **4 047 tasi (64,8 foizi)** qanoatlantirilgan bo'lsa, **2 092 tasi (33,5 foizi)**ga umumiy tushuntirish berish orqali ko'rib chiqilgan va **111 tasi (1,8 foizi)**ga rad javobi berilgan, qolgan murojaatlar ko'rib chiqish jarayonida.

Kadastr agentligi va hududiy boshqarmalariga o'tgan davr mobaynida **Prezident virtual qabulxonasi** orqali jami **11 714 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Jami murojaatlar viloyatlar kesimida ko'rib chiqilganda, eng ko'pi **Qashqadaryo viloyatiga (1 524 ta)**, **Toshkent viloyatiga (1 395 ta)**, **Surxondaryo viloyatiga (1 253 ta)** va **Samarqand viloyatiga (1 199 ta)** murojaat kelib tushgan. Shuningdek, Davlat kadastrlari palatasi va hududiy boshqarmalariga jami **7 312 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlar qanoatlantirilishi Agentlik boshqarmalari kesimida ko'rib chiqilganda, eng kami **Toshkent viloyatida (299 ta yoki 67 foiz)**, **Toshkent**

**shahrida (92 ta yoki 73 foiz) Navoiy viloyatida (69 ta yoki 78.4 foiz) ekanligini ko'rishimiz mumkin.**

Muddati buzilib yopilgan va 30 kundan kechiktirib yopilgan murojaatlarni tahlil qilganimizda, eng ko'pi **Toshkent shahrida (39 ta yoki 31 foiz) Samarqand viloyatida (15 ta yoki 3.6 foiz)** ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Agentlik tizimiga kelib tushgan murojaatlarning **390 ta** yoki **9,7 foizi** takroriy murojaatlarni tashkil etib, hududlar kesimida ko'rib chiqilganda, eng ko'pi Samarqand viloyatida (**72 ta**), Toshkent viloyatida (**53 ta**) va Surxondaryo viloyatida (**51 ta**)ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari orqali Agentlik va Davlat kadastrlari palatasiga kelib tushgan jami **11 714 ta** murojaatlar yo'nalish kesimida tahlil qilinganda:

- Yer uchastkalari, bino va inshootlarga kadastr hujjatlarini tayyorlash – 5 279 ta
- Yer maydonini o'zboshimcha egallab olish, noqonuniy qurilish – 1993 ta
- Yer maydoni ajratish (qishloq xo'jaligi, tadbirkorlik) – 268 ta,
- Kadastr xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan – 1014 ta
- Kadastr ma'lumotlar bazasi bilan bog'liq holatlar – 1014 ta
- Boshqa masalalar bo'yicha esa – 1300 ta ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Kadastr agentligining qisqa **1097 – Ishonch telefoniga** joriy yil 1-iyul kuniga qadar jami **7 500** dan ortiq murojaatlar qabul qilingan bo'lib, Agentlik, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlariga ko'rib chiqish uchun yuborilgan. Agentlikka ijro uchun qabul qilingan **571 ta** murojaatdan, **176 ta** yoki **30,8 foiz** qanoatlantirilgan, **351 ta** yoki **61,4 foiziga** tushuntirish berilgan, **10 ta** murojaat rad etilgan va **10 ta** murojaat tegishlilik bo'yicha vakolatli organga yuborilgan.

2023-yil yanvar-iyun oylari davomida Kadastr agentligi hududiy boshqarmalariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda rahbar va mas'ul xodimlar tomonidan kamchiliklar va qonunbuzarliklarga yo'l qo'yilganligi uchun javobgarlikka tortilish holatlari tahlil qilinganda, **2 ta** lavozimdan ozod etish, **10 ta** jarima va **82 ta** hayfsan, jami **94 ta** intizomiy jazo choralari qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin.

Kadastr agentligi rahbariyati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan grafikka muvofiq, o'tgan davr mobaynida, hududlarda sayyor qabullar tashkil etildi. Ushbu qabullarda, **270 dan** ortiq fuqarolar ishtirok etgan bo'lib, **218 nafar** fuqaroning murojaati ijro uchun qabul qilindi. Ijro uchun qabul qilingan murojaatlarning **35 foiz** masalasi hal etilib, ijobiy ko'rib chiqildi.

Joriy yilda, Kadastr agentligi hamda hududiy boshqarmalari tomonidan murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha OAVlarda chiqishlar tashkil etildi. TV va radioda - **128 ta**, gazeta va jurnallarda - **34 ta**, Elektron OAVlarda - **280 ta**,

idoraning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida - **488 ta**, jami – **958 ta** chiqishlar qilingan.

Tizim tashkilotlari hamda hududiy boshqarmalardagi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlarni malakasini oshirish maqsadida Agentlik mas'ullari tomonidan 36 soatlik tashkiliy o'qitish ish rejasi ishlab chiqildi hamda bugungi kunga qadar, jami 145 nafar xodimning malakasi oshirilib, yakuniy test natijalariga ko'ra, malaka sertifikatlar berildi.

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha qilingan muhokamadan kelib chiqib, Hay'at yig'ilishi **qaror qiladi:**

**1. Tashkiliy-nazorat va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i D.Shoniyazovning Kadastr agentligi markaziy apparatida 2023-yil I yarim yilligi davomida murojaatlar bilan ishlash holati haqida bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

**2. Tashkiliy-nazorat va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi (D.Shoniyazov):**

**bir oy muddatda** Agentlik tizimida murojaatlar bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizomni qayta ko'rib chiqsin va yangi tahrirda tasdiqlash uchun kiritсин.

**Yuridik bo'lim (D.Amirqulov) va Raqamli texnologiyalar bo'limi (O.Abdullayev)** bilan hamkorlikda **ikki hafta muddatda** "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 1097 Ishonch telefoni faoliyatini tashkil qilish tartibi to'g'risida" nizom loyihasini tasdiqlash uchun kiritсин.

**4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risida.**

*(Pulatov, Allaberganov, Abdullayev, Mirmaksudov, Atamuratov, Fayzullayev, Sultanov, Ergeshov, Imomkulov, Valiyev, Shoniyazov, Pulatov)*

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Hay'ati yig'ilishining joriy yil 24-yanvardagi 09-01-sonli bayoni bilan tasdiqlangan Kadastr agentligining 2023-yil I yarim yillik ish rejasi tasdiqlangan bo'lib, mazkur ish rejaga asosan 5 ta yo'nalishda 88 ta banddan iborat chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Ushbu ish rejaning 84 ta banddagi chora tadbirlar ijrosi to'liq ta'minlanib, belgilangan tartibda nazoratdan olinishi ta'minlangan. Qolgan 4 ta banddagi chora-tadbirlar asosli sabablarga ko'ra ijro muddati uzaytirilgan.

Shuningdek, Kadastr agentligi markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari bilan hamkorlikda Agentlikning joriy yil II yarim yilligiga mo'ljallangan ish rejasi loyihasi ishlab chiqildi. Unga muvofiq 5 ta yo'nalishda 71 ta banddan iborat chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutildi.

Agentlik ish rejasida belgilangan chora tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar belgilab berildi.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala bo'yicha qilingan muhokamadan kelib chiqib, Hay'at yig'ilishi **qaror qiladi:**

1. Kadastr agentligi direktori o'rinbosarlarining 2023-yil I yarim yillik ish rejasi ijrosi yuzasidan axborot ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil II yarim yillik ish rejasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.


3. **Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev, A.Abdullayev, M.Mirmaksudov), markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari rahbarlari, shuningdek, tizim tashkilotlari hamda hududiy boshqarma boshliqlari** Kadastr agentligining 2023-yil II yarim yillik ish rejasidagi tegishli topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatlarda va sifatli ta'minlanishida qat'iy nazorat o'rnatilishini ta'minlasin.

4. **Tashkiliy nazorat va tahlil boshqarmasi (D.Shoniyazov)** Agentlik tegishli tuzilmalari bilan birgalikda **har oy yakuni** bilan ish rejaning ijrosi yuzasidan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda natijasi bo'yicha rahbariyatga axborot taqdim etib borsin.

5. Mazkur masala yuzasidan berilgan topshiriqlar ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

**Hay'at mas'ul kotibi**

  
**D.Shoniyazov**



**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining  
2023-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan  
I S h R E J A S I**

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi.	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ullar: Direktor o‘rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
<b>Ia. Agentlikning 2023-yil II yarim yilligida Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar</b>				
1.	<b>Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini <u>“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”</u>da amalga oshirishga oid davlat dasturida <b>Kadastr agentligiga</b> yuklatilgan topshiriq va vazifalarni ijrosini ta’minlash.</b>	1. Davlat dasturida Kadastr agentligiga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yuqori turuvchi davlat organlariga axborot kiritish. 3. Topshiriqlar ijrosini “Ijro.gov.uz” tizimida nazoratga olishni ta’minlash.	II yarim yillikda	Direktor o‘rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev, A.Abdullayev, Mirmaksudov), markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari rahbarlari
2.	<b><u>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-2023-yillarda respublika hududlariga tashriflari yakunlari yuzasidan tasdiqlangan bayonnomalarda</u> <b>Kadastr agentligiga</b> yuklatilgan topshiriq va vazifalarni ijrosini ta’minlash.</b>	1. Bayonnomalarda Kadastr agentligiga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yuqori turuvchi davlat organlariga axborot kiritish. 3. Topshiriqlar ijrosini “Ijro.gov.uz” tizimida nazoratga olishni ta’minlash.	II yarim yillikda	Direktor o‘rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev, A.Abdullayev, Mirmaksudov), markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari rahbarlari
3.	<b><u>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida</u> iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha</b>	1. Bayonnomalarda Kadastr agentligiga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish.	II yarim yillikda	Direktor o‘rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev, A.Abdullayev, Mirmaksudov),

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
	2018-2023-yillarda o'tkazilgan majlislar yakunlariga muvofiq tasdiqlangan bayonnomalarda <b>Kadastr agentligiga yuklatilgan topshiriq va vazifalarni ijrosini ta'minlash.</b>	2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yuqori turuvchi davlat organlariga axborot kiritish. 3. Topshiriqlar ijrosini "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olishni ta'minlash.		markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari rahbarlari
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>"O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"</b> 2022-yil 20-oktabrdagi PQ-405-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	1. Kadastr agentligiga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yuqori turuvchi davlat organlariga axborot kiritish. 3. Topshiriqlar ijrosini "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olishni ta'minlash.	II yarim yillikda	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev, A.Abdullayev, Mirmaksudov), markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari rahbarlari
5.	O'zbekiston Respublikasining <b>"Davlat budjeti to'g'risida"</b> gi Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida Davlat budjeti hisobidan 2023-yilda bajarilishi kutilayotgan geodeziya, kartografiya va davlat kadastri ishlari uchun ajratilgan mablag'lar bo'yicha yil yakuniga qadar to'liq shartnoma tuzish va moliyalashtirish.	Davlat budjeti mablag'lari hisobidan bajarilishi kutilayotgan geodeziya, kartografiya va davlat kadastri ishlari bo'yicha tizim tashkilotlari bilan shartnoma tuzish va ularni bajarilgan ishlarning xulosasiga asosan yil yakuniga qadar to'liq moliyalashtirish.	II yarim yillikda	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, Mirmaksudov), Moliya-iqtisod bo'limi (Muxammadiyev)
6.	2022-yil 24-avgustdagi PQ-198-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar haqidagi ma'lumotlarni <b>"UZKAD"</b> tizimiga to'liq o'tkazish.	Qog'oz shaklida yoki boshqa axborot tizimlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar to'g'risidagi ma'lumotlar har bir ko'chmas mulk obyektini identifikatsiyalagan holda 3-bosqichda tijorat tashkilotlariga tegishli obyektlarni <b>"UZKAD"</b> tizimiga to'liq o'tkazish.	dekabr	Direktor o'rinbosari (M.Mirmaksudov) Kadastr va ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni muvofiqlashtirish boshqarmasi (Latipov), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev), "Geoinfokom" DUK (Turg'unov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
7.	Kadastr agentligining 2023-yil 24-fevraldagi 12-12-sonli "Sohada raqamlashtirish, ko'chmas mulklarni hisobga olish, yer, kadastr va geodeziya nazoratini amalga oshirish, geodeziya-kartografiya va boshqa yo'nalishlarida 2023-yilda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar bo'yicha Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta'minlash.	Ko'chmas mulklarni hisobga olish, yer, kadastr va geodeziya nazorati hamda geodeziya va kartografiya yo'nalishida 2023-yilda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar bo'yicha "Yo'l xarita"sining har bir bandida belgilangan topshiriqlarning ijrosi yuzasidan Agentlik direktoriga axborot kiritish.	doimiy	Direktorning birinchi o'rinbosari (Allaberganov), Yig'ma axborot tahlil boshqarmasi (Sultanov)
8.	O'zbekiston Respublikasining "Fazoviy ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-702-son Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida Fazoviy ma'lumotlarga oid 2 ta xalqaro (ISO) standartni mahalliyashtirishni ta'minlash.	1. ISO ning Metama'lumotlar (Geographic information - Metadata) va Qo'llash sxemasi qoidalari (Geographic Information - Rules for Application Schema) standartlarini o'zbek tiliga tarjima qilish. 2. Standartlarni qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda shakllantirish. 3. Standartlarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish.	sentabr  oktabr  noyabr	Direktor o'rinbosari (Mirmaksudov), FMMIR boshqarmasi (Zokirov), Metodologiya va uslubiy qo'llab-quvvatlash boshqarmasi (Nishanov), YeMTZ, geodeziya va kartografiya boshqarmasi (Ergeshov)
9.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-oktabrdagi 610-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarning davlat reyestrtdagi ochiq ma'lumotlarni ommaviy geoportal orqali taqdim etilishini yo'lga qo'yish.	1. Yaratilgan ommaviy geoportalni ishga tushirish.  2. Mazkur ommaviy geoportalni ommalashishida Kadastr agentligi sahifalarida va boshqa axborot resurslarida turkum materiallarini berib borish.	oktabr    noyabr	Direktor o'rinbosari (Mirmaksudov), FMMIR boshqarmasi (Zokirov), Raqamli texnologiyalar bo'limi (Abdullayev), "Geoinfokom" DUK (Turg'unov)  Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi (Atamuratov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
		3. Ko'chmas mulkka oid ma'lumotlarni ishonchligini ta'minlash va doimiy yangilab borish	doimiy	Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)
<b>Ib. Kadastr agentligining 2023-yil II yarim yilligida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha takliflari</b>				
10.	2024-yilda Agentlik va uning hududiy boshqarmalarining Davlat budjeti hamda Jamg'arma mablag'lari hisobidan talab etiladigan mablag'lar bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligiga murojaat kiritish.	2024-yilda Davlat budjeti hamda Jamg'arma mablag'lari hisobidan bajarilishi kutilayotgan geodeziya, kartografiya va davlat kadastr ishlari hamda shtat birliklarini saqlash bo'yicha talab etiladigan mablag'lar o'rganilib, asoslangan takliflar bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish.	dekabr	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, Mirmaksudov), Moliya-iqtisod bo'limi (Muxammadiyev)
11.	Davlat chegarasini delimitatsiya, demarkatsiya va redemarkatsiya qilish hamda chegara bo'yi muammolarini hal qilish.	Davlat chegarasini delimitatsiya, demarkatsiya va redemarkatsiya qilish, shuningdek, chegara bo'yi muammolarini hal qilish masalalari bo'yicha tegishli vazirlik idoralar bilan hamda O'zbekiston Respublikasi bilan chegaradosh respublikalar bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish.	Tomonlar kelishuviga asosan II yarim yillikda	Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), Davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish boshqarmasi (Umarov), Respublika aerogeodeziya markazi (Omonov)
12.	Geodeziya va kartografiya faoliyatiga oid profilaktika tadbirlarini o'tkazish.	Tadbirkorlik subyektlari o'rtasida geodeziya va kartografiya to'g'risidagi amaldagi qonunchilik hujjatlari va ularga kiritilgan o'zgartirishlarni tushuntirish, ularning talablari buzilishining oldini olishga qaratilgan tavsiyalar, tushunchalar berib borish. Jumladan: har chorak yakunlari bo'yicha keyingi oyning 10-sanisigacha	Reja-grafikka asosan (Choraklik)	Direktorning birinchi o'rinbosari (Allaberganov), Geodeziya nazorati boshqarmasi (Imomqulov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
		"Yagona davlat nazorati" axborot tizimiga kiritib borish; profilaktika tadbiri o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan reja-grafiklar asosida tizimli ravishda o'tkazib borish.		
13.	Geodeziya va kartografiyaga doir materiallarni (ma'lumotlarni) ekspertizadan o'tkazish.	Geodeziya va kartografiyaga doir materiallarni (ma'lumotlarni) ekspertizadan o'tkazish. Bunda: Kadastr agentligiga taqdim qilingan materiallarni (ma'lumotlarni) texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar asosida tayyorlanganligini o'rganish; geodeziya va kartografiyaga oid bajarilgan ishlar haqidagi texnik hisobotlarga muvofiqligini o'rganish. Ekspertizadan o'tkazilgan geodeziya va kartografiyaga doir materiallarni (ma'lumotlarni) reyestrini yuritish.	II yarim yillikda	Direktorning birinchi o'rinbosari (Allaberganov), Geodeziya nazorati boshqarmasi (Imomqulov)
14.	Ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillariga amal qilinganligini doimiy nazorat qilib borish.	Litsenziya axborot tizimi orqali ruxsat berish va xabardor qilish bo'yicha yuborilgan arizalarni belgilangan tartib-taomillarga muvofiqligini o'rganish. Kamchiliklar mavjud bo'lgan taqdirda arizachilarga bartaraf etish yuzasidan tushunchalar olib borish.	II yarim yillikda	Direktorning birinchi o'rinbosari (Allaberganov), Geodeziya nazorati boshqarmasi (Imomqulov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	<b>Mas'ullar:</b> Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
15.	Agentlik ma'muriy binosini kapital ta'mirlash bo'yicha barcha zaruriy ishlarni amalga oshirish.	1. Loyiha-smeta hujjatlariga asosan kapital ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni ta'minlash. 2. Amalga oshirilgan ishlarni qabul qilish chorasini ko'rish.	iyul-noyabr	Direktorning birinchi o'rinbosari (Allaberganov), Ishlar boshqarmasi (Inamov), Moliya-iqtisod bo'limi (Muxammadiyev)
16.	“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarni davom ettirish.	“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarni davom ettirish.	sentabr-oktabr	Direktorning birinchi o'rinbosari (Allaberganov), Ishlar boshqarmasi (Inamov), Moliya-iqtisod bo'limi (Muxammadiyev), Kasaba uyushmasi qo'mitasi
17.	Agentlik va Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari hamda ularning tuman (shahar) bo'limlari, shuningdek, tizim tashkilotlari ma'muriy binolariga quyosh fotoelektrostansiyalari o'rnatish ishlarini jadallashtirish.	Agentlik va Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari hamda ularning tuman (shahar) bo'limlari, shuningdek, tizim tashkilotlari ma'muriy binolariga quyosh fotoelektrostansiyalari o'rnatish ishlarini jadallashtirish.	iyul-dekabr	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, Mirmaksudov), Ishlar boshqarmasi (Inamov), Moliya-iqtisod bo'limi (Muxammadiyev), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev), tizim tashkilotlari rahbarlari
18.	Davlat koordinatalar tizimidan (SK-42) butunjahon koordinatalar tizimiga (WGS-84) o'tish parametrlarini ishlab chiqish.	1. Davlat koordinatalar tizimidan (SK-42) butunjahon koordinatalar tizimiga (WGS-84) o'tish parametrlarini aniqlash. 2. Davlat koordinatalar tizimidan (SK-42) butunjahon koordinatalar tizimiga (WGS-84) o'tish parametrlarini belgilovchi normativ hujjat loyihasini ishlab chiqish. 3. Loyihani belgilangan tartibda tasdiqlashga kiritish.	1-oktabr	Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya boshqarmasi (Ergeshov), Geodeziya nazorati boshqarmasi (Imomqulov), Respublika aerogeodeziya markazi (Omonov), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)
19.	O'zbekiston Respublikasining “Fazoviy ma'lumotlar to'g'risida” Qonuni hamda Vazirlar	1. Amaldagi qonunchilik hujjatlarini xatlovdan o'tkazish	oktabr	Direktorning birinchi o'rinbosari (Allaberganov),

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	<b>Mas'ullar:</b> Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
	Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fazoviy ma'lumotlar sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 26-oktabrdagi 620-son qarorining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirish.	hamda "Fazoviy ma'lumotlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-oktyabrdagi 620-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlash. 2. Tayyorlangan takliflarni Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasiga taqdim etish.	noyabr	Metodologiya va uslubiy qo'llab-quvvatlash boshqarmasi (Nishanov), Yuridik bo'lim (Amirqulov), FMMIR boshqarmasi (Zokirov)
20.	Xususiy kadastr muhandislari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida ular tomonidan ko'chmas mulk obyektlariga kadastr yig'majildi tayyorlash jarayonlarini UZKAD tizimida amalga oshirish bo'yicha avtomatlashtirilgan platforma yaratish.	UZKAD tizimida kadastr muhandislari tomonidan ko'chmas mulk obyektlariga kadastr yig'majildi tayyorlash jarayonlari tartibi hamda Texnologik yo'riqnoma ishlab chiqish.	oktabr-dekabr	Direktor o'rinbosari (Mirmaksudov), Kadastr va ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni muvofiqlashtirish boshqarmasi (Latipov), Raqamli texnologiyalar bo'limi (Abdullayev), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev), "Geoinfokom" DUK (Turg'unov)
21.	Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yaratish investitsion loyihasining texnik topshirig'ini ishlab chiqish	1. Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yaratish investitsion loyihasining texnik topshirig'ini ishlab chiqish yuzasidan amaldagi holatni o'rganish. 2. Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yaratish investitsion loyihasining texnik topshirig'i ishlab chiqish.	sentabr  dekabr	Direktor o'rinbosari (Mirmaksudov), FMMIR boshqarmasi (Zokirov), Loyihani amalga oshirish guruhi (Magdiyev)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi.	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
22.	O'zbekiston Respublikasi <b>“Fazoviy ma'lumotlar to'g'risida”</b> gi Qonuniga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash va Vazirlik va idoralarga kelishish uchun kiritish.	1. O'zbekiston Respublikasi Fazoviy ma'lumotlar to'g'risidagi Qonuniga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash. 2. O'zbekiston Respublikasi Fazoviy ma'lumotlar to'g'risidagi Qonuniga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflarni Vazirlik va idoralarga kelishish uchun kiritish.	avgust  oktabr	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, Mirmaksudov), Metodologiya va uslubiy qo'llab-quvvatlash boshqarmasi (Nishanov), FMMIR boshqarmasi (Zokirov), YeMTZ, geodeziya va kartografiya boshqarmasi (Ergeshov)
23.	Kadastr agentligi va uning tarkibiy tuzilmasiga kiruvchi hududiy boshqarmalar, muassasalar, korxonalar va tasarrufidagi tashkilotlar xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish kiritish haqida takliflar ishlab chiqish.	1. Navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tkazish maqsadida shaffof mexanizmni ta'minlash maqsadida Nizomni qayta ishlab chiqish. 2. Attestatsiya o'tkazish mexanizmi bo'yicha taklif jadvalini tayyorlash.	II yarim yillikda	Direktorning birinchi o'rinbosari (Allaberganov), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (Olimov)
